

UYG'UR TILIDAGI DORIVOR O'SIMLIK NOMLARINING BOSHQA TILLARGA TARQALISH JARAYONI: SABABLARI, OMILLARI, NEGIZI

Gisarov Farxod

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada uyg'ur tilida xalq tabobati terminlari sifatida qo'llaniladigan atamalarning yasalishi va ularning boshqa tillardagi variantlari o'rtaqidagi bog'liqlik jihatlari, uyg'ur tilidagi atamalarning tabobat taraqqiyot jarayonida yoyilish yo'llari, buning sabablari va omillari va tabobat terminologiyasi rivojini tadqiq etishdagi ahamiyatini ko'rsatishga uriniladi.

Maqolada ko'zda tutilgan fikrlarni bayon etishda metodologik tamoyillar va an'anaviy usullar qo'ygan meyoriy talablar doirasida ilmiy tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondoshilgan.

Kalit so'zlar: Xalq Tabobati, ilmiy-tibbiy iste'mol, tarixiy-tamadduniy negizlar, ijtimoiy-madaniy sabab va omillar, Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi, an'anaviy uyg'ur tabobati (AUT), terminlarning internatsionallashuvi, "xom doru", Aptapperes guli, Amile آملي، Apsentiyn اپسەن提ن، Gilos, Qovoq, Amut, "battixi xindiy", "xindiy dona"

ABSTRACT

The article attempts to show the relationship between the formation of terms used as folk medicine terms in the Uyghur language and their variants in other languages, the ways in which terms in the Uyghur language spread in the process of medical development, the reasons and factors for this, and their significance in studying the development of medical terminology.

The ideas presented in the article are presented from the perspective of scientific research within the framework of methodological principles and normative requirements set by traditional methods.

Keywords: Folk Medicine, scientific-medical consumption, historical-cultural foundations, socio-cultural causes and factors, Uyghur medicine, the science of raw materials, traditional Uyghur medicine (AUT), internationalization of terms, "raw materials", Aptapperes flower, Amile amile, Absinthe, Cherry, Pumpkin, Amut, "Indian grain", "Indian grain"

KIRISH

1990 yillardan boshlab, rivojlanayotgan davlatlarda Xalq Tabobatiga qiziqish ortib ketdi. Sobiq Sovet makonlarida mustaqil respublikalar shakllanishi va rivojlanishi masalasida islohotlar boshlanganligi Xalq Tabobatiga taraqqiyot

imkoniyatlarini ochib berdi. Xalqlar o‘z tarixiy qadriyatlari, milliy an’anaviy tabobat usullariga murojaat qilishga qaytdilar va bu jarayon tabobat usullariga e’tibor qaratish hamda ularni ilmiy jihatdan tadqiq qilish masalasining aktualligini yuzaga chiqardi. Tabobat bo‘yicha darslik kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlar va zarur adabiyotlarni zudlik bilan nashr etish vazifasi dolzarblik kasb etdi

Bu jarayonni keltirib chiqargan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Xalq Tabobati davolash usullari va ularning inson sog‘ligini saqlashda foydali jihatlari masalasi Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti [JSST] kun tartibidagi dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan yovvoyi va madaniylashgan giyohlar, foydali o‘simliklar, ularning gullari, barglari, poyalari, ildizlari, po‘stloqlari tabobat materiallari sifatida o‘z nomlariga egadir.

Tabobat ilmi bilmdonlarining lmiy amaliyotlari, hayotiy tajribalari natijasida jamlangan hamda keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirilgan turkiy tillarda, jumladan uyg‘ur tilidagi adabiyotlarda, tabobat sohasiga doir kitoblarda yuqorida eslatilgan atamalar juda ko‘p uchratiladi.

Atamalarning tildan tilga, hududlardan hududlarga o‘tib borishi uzliksiz jarayon bo‘lib, tadrijiy rivojlanishda davom etib kelganligi tarixiy misollarda yaqqol kuzatiladi. Ilk ishlab chiqilgan, qo‘llanilgan hamda lmiy-tibbiy iste’molga kiritilgan uyg‘ur tilidagi tabobat atamalarining qo‘shni tillarga o‘zlashib borish hodisasi o‘zining tarixiy-tamadduniy negizlariga, ijtimoiy-madaniy sabab va omillariga ega.

MUHOKAMA

Qadimdan foydalanib kelinayotgan dorivor o‘simliklarning struktur tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari, yer yuzida uchraydigan mintaqalari, qaysi faslda ko‘karishi, gullashi, hosilga kirishi, qurib tayyor bo‘lishi kabi jihatlari uzoq vaqtlardan buyon lmiy-tadqiqot izlanishlari obyektiga aylanib bo‘lgan. An’anaviy uyg‘ur tabobatining metologik nazariy asoslari, shakllanish yollarining umumiylilik yoki o‘ziga xos jihatlari kabi masalalar dunyoning yetakchi mamlakatlarida, jumladan Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, AQSH, Angliya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston Respublikalarida Adelijang Wusiman, Saifuding Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Zhang, Lu Zhao, Shuge Tian, E Wen, Halmuart Upur, Fangfang Xiang, Hongjuan Niu, Lan Yao, Jing Yang, Shuhan Cheng, Zhi Zhou, Refuhati Saimaiti, Yusup Matnur, Ainiwaer Talifu, Wenbin Zhou, Abliz Zeper kabi olimlar tomonidan keng miqyosda lmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasi o‘laroq juda ko‘plab tibbiy adabiyotlar, lmiy risolalar va maqolalar hamda

tibbiyot ta'lim tizimi uchun zarur bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilgan.

“An'anaviy uyg'ur tabobati (AUT) qadimgi uyg'ur tibbiyot nazariyasiga asoslangan bo'lib, u xitoy, qadimgi yunon, arab, fors va hind tibbiyoti kabi turli xil an'anaviy tibbiyotlarning umumiy manbalari mohiyati asosida ishlab chiqilgan. Kasalliklarni diagnostika qilishning zamonaviy eksperimental usullari va texnologiyalari uyg'ur tibbiyotining modernizatsiyasini tezlashtirdi”¹.

Hind, tibet, xitoy, uyg'ur, arab, fors tabobatlari o'z davrining eng ilg'or tibbiyot maktablari darajasiga erishgan. Keyinchalik hind, tibet, xitoy, uyg'ur, fors tabobatlari tajribalari asosida yaratilgan kitoblar arab tiliga tarjima qilingan. O'z davrining buyuk tabiblaridan hisoblangan Abu Ali Ibn Sino, eronlik Abu Mansur Muvaffaq, xorazmlik Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya Ar-Roziy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, arabistonlik vrach Muhammadxon o'g'li Abdulg'oziyxon, Ibn Baytar kabi allomalar tabobat ilmining shuhrati dunyoga yoyilishiga katta hissa qo'shdilar.

Ko'hna Hind tilida yozilgan “Yajur-veda” (“Hayot haqida fan”)ni vrach Sushruta qayta yozgan va unda Hindistonda o'sadigan 700 xil dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan, inson salomatligiga foydali o'simliklar bayonini bergen.

Abu Mansur Muvaffaq hind tabobati haqida yozgan kitobida dorivor o'simliklarning 466 tasini keltiribgina qolmay, 44 xil organik dorivor moddalar va ularning kimyoviy o'ziga xosliklari to'g'risida ma'lumotlar berdi. Bokulik farmatsiya magistri Abdul Axundov 1893-yilda bu kitobdan arab tilida dorivor o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar bo'yicha ilmiy ish yozdi. Ibn Baytar o'z kitobida 1400 xil dorivor mahsulotlar va ularga xos farmatsevtik jihatlarini tavsiflab bergen. Mashhur hakim Abu Ali ibn Sino 1020 yilda 5 jildlik “Al-Qonun” (“Tib qonunlari”) asarini yozadi.

Abu Ali Ibn Sino yuqorida zikr etilgan manbalardan, xususan an'anaviy uyg'ur tabobatiga oid manbalardan qo'llangan holda o'zining “Tib qonunlari” asarining oddiy dorilarga bag'ishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari, ulardan olinadigan dorilarning nomlanishi, ularni tayyorlash va iste'mol qilish usullarini bayon etgan va ularni muolajada qo'llash borasida qimmatli tavsiyalar yozib qoldirgan. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan asarlaridan 40 tasi bevosita tibbiyotga oiddir va ularda turli xastaliklarni davolashda aynan dorivor giyohlar hamda shifobaxsh o'simliklardan foydalanish to'g'risida

¹ Adelijang Wusiman, Saifuding Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Zhang. Traditional Uyghur Medicine: Concepts, Historical Perspective, and Modernization. (Adelijang Vusiman, Saifudin Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Chjan. An'anaviy uyg'ur tabobati: tushunchalar, tarixiy istiqbol va modernizatsiya). Maqola. 2017. 23. 06. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28646808/>

batafsil ma'lumotlar berilgan. "E'tiborga molik jihat shundaki, zamonaviy olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, tibbiyotda qo'llanilayotgan dori-darmonlarning deyarli 40 foizini dorivor o'simliklar tashkil etadi. Demak, Abu Ali ibn Sino bundan necha asrlar avval o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini yaxshi bilgan va tabobatda ulardan o'rinni hamda unumli foydalangan".²

"Boy ilmiy an'analarga ega O'rta Osiyo fani tarixining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – IX -XI asrlarda bu zamin dan yetishib chiqqan allomalarning aksari o'z vatanlaridan yiroqda, xususan, xalifalikning poytaxti - Bag'dod shahrida ijod qilganlar. Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, bu holatning asosiy sababchisi qilib xalifa al-Ma'mun ko'rsatiladi. Ma'lum muddat Movarounnahr va Xurosonni boshqargan al-Ma'mun 819-yilda Bag'dodga ko'chib o'tadi, shunda u o'zi bilan bu mintaqaning mashhur olimlari, xunarmand va lashkarboshilari va boshqa ko'zga ko'ringan kishilarini ham Bag'dodga olib ketadi. Albatta, al-Ma'mundan keyin ham Bag'dodga xalifalikning turli burchaklaridan, jumladan, O'rta Osiyodan ham olimlarning kelishi davom etgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, Bag'dodga chaqirilgan ulamolar olim sifatida, asosan, o'zlarining vatanida, ya'ni O'rta Osiyoda shakllangan va bu holat mazkur zaminning o'sha davrlarda yuqori ilmiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. IX -XI asr Sharq xalqlari fani va madaniyatidagi ilmiy yuksalish, shubhasiz, ko'p jihatlari bilan O'rta Osiyo olimlarining samarali ijodi tufayli vujudga keldi. Bu davrda riyoziyot, falakiyot, tabobat, kimyo, jug'rofiya, tilshunoslik, hadisshunoslik, adabiyot va hatto musiqa sohalaridagi yangi kashfiyotlarni O'rta Osiyo olimlarining xizmatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi".³

Yevropa olimlaridan Yu. Rushka mashkhur nemis tadqiqotchisi G. Zuter tuzgan o'rta asr musulmon mathematik va astronomlari ro'yxatidagi "olimlarning barcha barchasi to'laligicha Xuroson, Movarounnahr, Baktriya va Fargona zaminlaridan edi"⁴, degan fikriga alohida e'tibor qaratgan.

NATIJALAR

Uyg'ur tilidagi dorivor o'simlik nomlari va ularning ushbu tildan boshqa tillarga o'tib borganligi masalasiga tadqqot nuqtai-nazaridan yondoshishda tilshunoslik tushunchalaridan sanalgan termin hamda terminologiya tushunchalari xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

² Йулдош Мирзаев, Жуманазар Мадиев. ТИБ ИЛМИ ЯЛОВБАРДОРИ (Абу Али ибн Сино хаёти ва фаолиятидан лавхалар) «Тафаккур» нашриёти. Тошкент – 2016. 36-бет.

³ Abduxalimov B. «Bayt al-hikma» va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar) © «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси , 2004. В. – 13. <https://sektor-api.argos.uz/media/> 822004.pdf.

⁴ Abduxalimov B. «Bayt al-hikma» va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar) © «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси , 2004. В. – 15. <https://sektor-api.argos.uz/media/> 822004.pdf.

Har qanday sohada terminlar biror bir sheva yoki dialektga mansublikdan xoli bo‘lish bilan ajralib turadi. Terminlar go‘yoki neytral so‘zlardan yasalgandek tuyuladi. Bunday atamalar bora-bora internatsionallashuv darajasiga ko‘tariladi va hech bir millat, elat vakili ularni talaffuz etishda qiyinchilikka uchramasligi va tez yodda saqlanib qolish xususitiga ega bo‘ladi.

“Uyg‘ur tili grammatikasi” kitobida termin so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Ilm-fanning har bir tarmog‘iga oid bo‘laklarga berilgan maxsus atamalar termin deb ataladi. Termin odatda aniq bir ma’noga ega bo‘ladi, ya’ni odatdagi so‘zlar kabi bir necha ma’noda qo‘llanilmaydi. Termin bir so‘zdan yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lib keladi. Qisqartma so‘zlar ham termin bo‘la oladi”⁵.

Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy kabi allomalar ham, G‘arb tilshunos olimlari Bartold, Bertels, Malov S.Ye., Falev P.A., Hartman M., Berezin I.N., Jarring G., Menges K., o‘zbek tilshunos olimlaridan I.Qo‘chqortoyev, A. Nurmonov, S.Muttalibov, Yo. Tojiyev va boshqa olimlar ham o‘z ilmiy ishlarida tahliliy-nazariy bilimlarga tayangan holda terminlardan konkret fakt sifatida foydalanganlar.

Uyg‘ur tilidagi atamalarni tahlil qilishda ba’zi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq o‘simpliklar nomlari, ayniqsa dorivor o‘simpliklarning uyg‘urcha nomlari borasida, ularning mavzuiy-ideografik jihatlari borasida ilmiy tadqiqotlar deyarli qilinmaganligi ko‘zga tashlanadi.

Sharq va G‘arb olimlari uyg‘ur tilidagi tabobat atamalarining yasalishida so‘z va so‘z birikmalarini yasashning tarixiy metodi qo‘llanilganligini ta’kidlashadi.

1992-yilda Nazarova G.Sh. uyg‘ur tilidagi shifobaxsh o‘simpliklar nomlari mavzusida ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirgan⁶.

Olim o‘z ilmiy ishida uyg‘ur tilidagi dorivor o‘simpliklar nomlarini umum turkiy nomlar bilan qiyoslaydi va uyg‘ur atamalari o‘z leksik plastini tashkil etishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi. O‘z ilmiy ishida tadqiq etgan 1060 ta nomlarning 30% ini uyg‘ur tilidagi so‘zlar tashkil etishini, uyg‘ur tilidagi dorivor o‘simpliklar nomlarining asosiy qismni o‘zlashgan otlar tashkil etishini va bunda fors, arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar umumiyligi nomlar (22% o‘zlashgan so‘zlar) ning katta qismini tashkil etishini ta’kidlaydi. Uyg‘ur tildagi o‘simpliklar nomlarini struktur analiz qilar ekan, Nazarova G.Sh. so‘z yasalishida uyg‘ur tilining ichki resurslari ustuvor ekanligini va bunda xalq tili ustuvor ekanligini misollar asosida ko‘rsatib beradi.

⁵ Shomiyeva A., Saidvaqqosov G. Uyg‘ur tili grammatikasi. Almata. 1967. B – 50.

⁶ Nazarova G.Sh. Nazvaniya lekarstvennykh rastenij v sovremennoj uygurskom yazike: avtoref. dis. kand... filol. nauk. Alma-Ata, 1992. Dissertatsiya. <http://www.dslib.net/jazyki-rosii/nazvanija-lekarstvennyh-rastenij-v-sovremennoj-uygurskom-jazyke.html>

“Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi”⁷ ensiklopediyasida uyg‘ur dorivor o‘simliklar bilan davolash tarixi, tibbiy usullarning benazirligi, xalq tabobati texnikasi, inson tanasining fiziologik tuzilmalari orasidagi uzviy bog‘liqlik, inson tana a’zolari faoliyati, uni yaxshilashning o‘ziga xos ahamiyatli jihatlari, tabiatda xom uchraydigan shifobaxsh o‘simliklarning turlari, qo‘llanish metodlari, kimyoviy tarkiblari va ishlatish me’yorlari kabi masalalar bayon etilgan. Ushbu ensiklopedik salohiyatga ega bo‘lgan kitob uyg‘ur tabobatchilik-dorigarchilik (farmatsevtika) oliy maktab (O‘quv yurt) lari uchun darslik vazifasini o‘tab kelmoqda.

Ushbu darslikda jamlangan o‘simliklar nomlariga tahliliy yondoshish shuni ko‘rsatadiki, biror dorivorlik xususiyatiga ega jismga nisbatan uyg‘ur tilidagi “Xom doru” termini qo‘llaniladi. Ensiklopediyaning kirish qismida “Xom doru” terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: “kasalliklarning oldini olish, diagnoz qo‘yish, daqvolash uchun ishlatiladigan o‘simlik, hayvonot, va ma’danlarni o‘z ichiga olgan, tabiiy, ma’lum asllik me’yorlari talablariga javob bera oladigan modda “Xom doru” deb ataladi.”

Darslik ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism “Umumiylig qism” deb nomlangan bo‘lib, asosan xom dorilar haqidagi umumiylig tushunchalarni o‘z ichiga oladi, ikkinchi qism esa “Maxsus qism” deb nomlangan bo‘lib, unda uyg‘ur tabaatida doimiy ishlatiladigan xom dorilar o‘ziga xos shifobaxshlik xususiyatlariga ko‘ra klassifikatsiya qilinib tushuntiriladi.

O‘simliklarning tabiiy-jug‘rofiy vatanlari nomlari, ximiyaviy tarkibi kabi faktorlar ular nomlari kelib chiqishiga ishora qiladigan omillar sifatida qaralishi mumkin. Darslikda o‘simliklarning qaysi mamlakat hududida tabiiy o‘sishi, uning kimyoviy tarkibining qanday moddalarga aloqadorligi borasida ko‘rsatilgan ma’lumotlar ayrim o‘simliklarning nomlari haqida ba’zi fikrlarga kelish imkonini beradi.

Masalan tarvuzning xalq tilida qo‘llaniladigan “battixi xindiy” yoki “xindiy dona” nomlari bu o‘simlikning dastavval Hind diyorlarida (Pokiston, Hindiston) yetishtirilganligiga ishora qiladi.

Amut o‘simgining “Amruti barriy” yoki “Kashmira” kabi nomlari mavjudligi uning Hindistondagi Kashmir viloyati nomi bilan bog‘liq tarixi borligiga ishora qiladi.

Qovoq o‘simgisi xalq tilida “lampakadu” nomi bilan ham ataladi va bu nomi ingliz tilida Bottle Gourd, Calabash Gourd degan so‘zlar bilan ifodalanadi.

⁷ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjor Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b.

Gilos o'simligining boshqa nomlari qatorida kelgan Qirosiya va Gelashiya nomlari uning lotin tilidagi "Fructus Cerasus avium" degan nomi shakllanishiga asos bo'lgan deyish mumkin.

Amile ئامىلە o'simligining Anbile varianti mavjud bo'lib, ingliz tilidagi Emblic leaf flower Fruit. (877-b). nomlanishi bilan aloqadorligi kuzatiladi.

Shuningdek, Apsentiyn ئەپسەنتن o'simligining boshqa nomi: Absentin bo'lib, lotin tilida Herba Artemisia absinthium degan shakli uchraydi.

Aptapperes gulى ئاپتپېرە رەس گۈلى nomining ingliz tiliga Sunflower deb o'girilganligi ham ushbu fikrga misol bo'la oladi.

XULOSA

Buyuk Ipak Yo'li omili qadimda Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq, tijorat, sayyohlik, ilm-fan maqsadlaridagi safarlarning amalga oshirilishiga xizmat qilgan ulkan ahamiyatga ega bo'lgan omil ekanligini e'tirof etish lozim.

Shuningdek, O'rta Osiyolik, jumladan movaraunnahrlik olimlarining yaratgan ilmiy manbalari o'z davrida katta nufuzga ega bo'lganligi tarixda dalillangan. Allomalarining kitoblarini mutolaa qilish, ular haqida tafakkur qilish, olimlarining asarlariga ilmiy sharhlar yozish mobaynida ona tillati arab, fors tili bo'lgan olimlar o'z tadqiqotlarida bevosita manbalarda qo'llanilgan uyg'ur yoki turkiy tillarga xos bo'lgan terminlarni izohlaganlar yoki asl holida o'z tillariga tarjima qilganlar. Bu jarayon uyg'ur tabobatida, hind- xitoy dorishunosligida yoki Ibn Sino asarlarida qo'llanilgan dorivor o'simlik nomlarining boshqa tillarga o'zlashib borishining negizini tashkil etgan muhim omil bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, uyg'ur tabobati dorivor o'simliklari terminlarining boshqa tillarga o'zlashish jarayonida quyidagi sabablar va omillarni ko'rsatish mumkin:

- So'zlar tarixan siyosiy-ijtimoiy, ilmiy, gumanitar aloqalar davomida bir tildan boshqa tilga o'zlashish jarayonini boshdan kechiradi.
- So'zlar atamalar darajasiga o'tishda sinonimlik xususiyatini yo'qotib, yaqqol termin sifatini kasb etib boradi.
- Termin atamalarni lug'aviy leksik tadqiq qilishga ehtiyoj kamayib boradi.
- So'zlarning terminlashuvida ayrim leksikologik buzilishlar sodir bo'ladi.
- Terminlarning internatsionallashuvi mazkur terminning ilmiy-texnik maqomiga, ahamiyatiga mos ravishda kenglik yoki aksincha torlik miqyosini kasb etadi.
- Termin so'zlarning tildan tilga o'zlashuvi jarayonida dominant til grammatik, morfologik, fonetik jihatlari o'zlashtiruvchi tildagi shu kabi qoidalarga

moslashtiriladi. Biroq bu moslashtirilish jarayonida milliy tilning fonetik, fonologik, orfografik, morfologik xususiyatlari ustuvorlik qiladi.

• Qadimgi terminlar talaffuzi va yozuv shakllaridagi tafovutlar noshirchilikning darajasi bilan ham bog'liq bo'lgan. Asarlarni qo'lyozmalar va ko'chirma namunalardan qayta ko'chirish davomida ko'plab xatolarga yo'l qo'yilganligi keyingi tadqiqot ishlari mobaynida muayyan terminga turli munosabatlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nazarova G.Sh. Nazvaniya lekarstvennix rasteniy v sovremennom uygurskom yazike: avtoref. dis. kand... filol. nauk. Alma-Ata, 1992. Dissertatsiya. <http://www.dslib.net/jazyki-rosii/nazvanija-lekarstvennyh-rastenij-v-sovremennom-ujgurskom-jazyke.html>
2. Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjung Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b.
3. Shomiyeva A., Saidvaqqosov G'. Uyg'ur tili grammatikasi. Almata. 1967. B – 50.
4. Йулдош Мирзаев, Жуманазар Мадиев. ТИБ ИЛМИ ЯЛОВБАРДОРИ (Абу Али ибн Сино хаёти ва фаолиятидан лавхалар) «Тафаккур» нашриёти. Тошкент – 2016. 36-бет.
5. Abduxalimov B. «Bayt al-hikma» va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar) © «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси , 2004. B. – 13. <https://sektor-api.argos.uz/media/822004.pdf>.
6. Adelijang Wusiman, Saifuding Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Zhang. Traditional Uyghur Medicine: Concepts, Historical Perspective, and Modernization. (Adelijang Vusiman, Saifudin Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Chjan. An'anaviy uyg'ur tabobati: tushunchalar, tarixiy istiqbol va modernizatsiya). Maqola. 2017. 23. 06. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28646808/>
7. Razzaqova O., To'rakulova S. (2022). Terminologiya va uning tarixi. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(4), 905–908. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/364>
8. Dadaboyev H. O'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma/ -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
9. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqi rivojlanish yo'lida // "Ma'rifat" gazetasi, 2007. 21-may;
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T.: Fan, 2008;

11. Danilenko V. P. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. М.: Наука, 1977. -S.157
12. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.